Шеърий матнларда миллатга хос ёки, аксинча, унга ёт бўлган характер “ифода шакллари ҳосил қилишда инсон идрокидаги образ катта ўрин тутуди”. Ҳар қандай бадиий асарда яратилган образ, аввало, ёзувчининг кишиларга ва ҳаётга муносабатини акс эттириш воситаси ҳисобланади. Айни чоғда, у муаллифнинг ҳаёт ҳодисаларига берган маънавий баҳоси ҳамдир. Адабиётшунос олим Д.Қуронов “ижодкор ўзи анчадан бери ечолмай келаётган, ўзи англашга интилаётган масаланинг ечимини табиат манзарасида, ҳаётдаги бирон бир ҳолатда, ҳодиса ва шу кабиларда кўриши... мумкин”, деб таъкидлайди. Ушбу шеърда образ даражасига кўтарилган “*синиқ шиша*” лексик бирлиги орқали инсоннинг ижтимоий ҳаётдаги фаолиятининг салбий бўёғи ифодаланган. Муаллиф “*синиқ шиша*” атрибутив бирикмаси орқали ўзбек аёлларининг ахлоқ нормасига мос келмайдиган характер тавсифини берган. Бизга маълумки, ўзбек аёллари ўзининг шарму ҳаёси, ибоси, ташки ва ички гўзаллиги, латофати билан ўзлигини намоён этади. Шеърни ўқиган китобхон қалбида,



хеч шубҳасиз, “*синиқ шишани чегалаб, бутунлаб бўлмаганидек, беҳаё, нопок инсонлар, улар қанчалик кўзни қамаштирамасин, лекин уларни поклаб бўлмайди*”, деган мазмун юзага чиқади. Муаллиф ушбу шеърини матн орқали китобхон руҳиятига таъсир этади, хулоса чиқаришга ундайди. Бундай яширин мазмун ифодасини прагматист А.Кўчибоев концептуал коннотация деб атайди: “Концептуал коннотациянинг асосий функцияси муаллиф ёки гапирувчи шахс томонидан жумлада, матнда, бадиий асар контекстида яширинган мазмунни интерпретация орқали тингловчига, китобхонга етказишдир. Бундай коннотациянинг мазмунидаги метафорик маъно контекстдан ташқари йўқолиб кетади ва у доимий эмас.” Агар матнда келтирилган “*синиқ шиша*” бирикмаси матндан ташқарида қўлланилса, оддий бир кераксиз предметга айланади, матнда ифодаланган эмоционал таъсир кучи йўқолади. Шуни таъкидлаш лозимки, “концептуал коннотацияни ҳосил қилишда асарнинг кенг контексти, номинатив бирлик замиридаги яширин маъно, ўқувчининг муаллиф ниятини пайқашдаги интуицияси, фон билимлари каби қатор прагматик омиллар муҳим роль ўйнайди”. Демак, поэтик референцияда ижтимоий борликдаги маълумотларнинг концептуал асослари ҳамда миллий характер, миллий онг, миллий тафаккур билан боғлиқ тушунчалар ўз ифодасини топади. Шу боис муаллифнинг тил бирликлари орқали инсоннинг ҳис-туйғулари, фикрлаш услуби, дунёқараши ва ахлоқига таъсири когнитив-прагматика доирасида ўрганилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент, 2008. –Б . 33.
2. Фролова О. Е. Референциальные механизмы фольклорного и авторского художественного текста тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 10.02.01, доктор филологических наук, 2008.
3. Кўчибоев А. Матн прагматикаси. Ўқув-услубий қўлланма. – Самарқанд, 2015. –Б. 20.
4. Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. –Андижон: Ҳаёт, 2002. –Б. 23-24.
5. Курбонова С.Бадиий матнда шахс хусусиятларини ифодалаш.Фил.фан.бўйича фалсафа док..(PhD)дисс. – Фаргона, 2018. –Б. 21
6. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Т.: Академнашр, 2013. –Б . 99.



SERQIRRA IJODKOR-O‘TKIR HOSHIMOV

Saidova Vasila Tojimurodovna,
Navoiy shahar 2-umumta’lim maktab
Ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

Annatotsiya: Ushbu maqolada taniqli o‘zbek yozuvchisi O‘tkir Hoshimov, uning hayot yo‘li, erishgan yutuqlari, betakror asarlari va kitobxonlar qalbida tutgan o‘rni haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ijod, O‘tkir Hoshimov, Bahor qaytmaydi, Dunyoning ishlari.

Xalqimizning atoqli va ardoqli adibi, O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov 1941-yil 5-avgustda Toshkentning Do‘mbirobod qishlog‘ida oddiy oilada dunyoga kelgan. U o‘z asarlarida, jumladan “Dunyoning ishlari” qissasida oilada bitta qiz va to‘rt o‘g‘il bo‘lgani, o‘zi o‘g‘illardan uchinchi ekanligini, otasi Atoulloxon Hoshimov, onasi Hakima Hoshimova, bobosining otasi Abulqosimxon eshon Turkiston tarixida o‘ziga xos iz qoldirgan ulug‘ shaxslardan bo‘lganini aytib o‘tadi. O‘tkir Hoshimov o‘zining “Bahor qaytmaydi”, “Tushda kechgan umrlar”, “Ikki eshik orasi”, “Dunyoning ishlari”, “Nur borki soya bor”, “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”, “Ikki kara ikki besh”, “O‘zbeklar” kabi o‘lmas asarlari bilan kitobxonlar qalbidan mustahkam joy olgan betakror adibdir. O‘tkir Hoshimov har bir asari voqeligi hayot haqidaligi, umr haqida go‘zal manzaralar, asar qahramonlarining ichki olamini har tomonlama mukammal, to‘g‘ri va aniq tasvirlash, unga kitobxonni ishontira olish yozuvchi ijodining tayanch nuqtasi hisoblanadi. Shu bois ham uning asarlari kirib bormagan o‘zbek xonodoni, loaqal bitta asarini o‘qimagan inson bo‘lmasa kerak. Adibning asarlarini mutoalaa qilgan kitobxon larzaga tushmasdan, ko‘ziga yosh olib tasirlanmasdan o‘qiy olmaydi. O‘nlab hajviy hikoyalari, kamediyalari, ichak uzdi hangomalarini o‘qiganlar beixtiyor qah-qah urib kuladi.

Aslida yozuvchining bolaligi urush va urushdan keyingi mashaqqatli davrga to‘g‘ri keladi. “O‘sha davrda non tanqis bo‘lgani bilan kutubxonalarda kitob ko‘p edi” deydi yozuvchi o‘z xotiralarida. Yozuvchi 1964- yilda O‘zbekiston Milliy universitetining (Sobiq Tosh DU) filologiya fakulteti jurnalistika bo‘limini sirdan tugatgan. Ilk kitobi uchinchi kursda o‘qib yurgan kezlari, “Po‘lat chavondozi” deb ataluvchi ocherklar to‘plami bo‘lgan. U har tomonlama zakovatli inson bo‘lgani uchun “Ijodkorda qishloqning qalbi shaharning aqli bo‘lishi kerak!” deydi. Birinch badiiy asari “To‘rt maktub” hikoyasi 1963-yil 17- aprelda “Toshkent haqiqati” gazetasida nashr etilgan. Shu hikoya asosida “Cho‘l havosi” yozilgan va “SHarq yulduzi” gazetasida to‘rtinchi kursda o‘qib yurgan paytlari bosildi. Qissaga atoqli adib Abdulla Qahhor nihoyarda xayrixohlik bilan xat yozadi. Bundan ruhlangan adib shunda o‘zida uyuklikni ko‘ra oladi. Sevimli yozuvchimiz faoliyatiga keladigan bo‘lsak, 1962- yildan 1982-yilgacha “Toshkent oqshomi” gazetasida bo‘lim mudiri bo‘lib ishlaydi va shu onlar uning eng hayajonli, eng sermahsul damlar bo‘ldi. “Bahor qaytmaydi”, “Qalbinga quloq sol”, “Kavkazlar” qissalari, “Nur borki, soya bor” romani, “Inson sadoqati” “Vijdon dorisi”, “To‘ylar muborak” sahna asrlari, ko‘plab hikoya va hajviyalar publisistik maqolalar shu yillarda yozilgan. Uch yil davomida G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyatida faoliyat ko‘rsatib, “Ikki eshik orasi” romani, qator hikoyalar, qissalar shu yillarda dunyoga kelgan. 1985-yildan 1995-yilgacha “SHarq yulduzi” jurnalida bosh muharrir bo‘lib, 1995-yildan 2005-yilgacha Oliy Majlisda ishlagan. Qirq besh yil davomida 60 ga yaqin kitobi turli tillarda ikki milliondan ortiq nusxada nashr etilgan[1]. Bundan tashqari yozuvchining axloqiy- ma’rifiy mavzudagi ssenariylari televideniya akslantirilgan [2]. 1974-yili esa “Birovning tashvishi” nomli psixologik dramasi sahnalashtirilgan. O‘tkir Hoshimov “O‘zbekiston xalq yozuvchisi” (1991-yil) unvoni, “Mehnat Shuhrati” (1996-yil) va “Buyuk xizmatlari uchun”(2001-yil) ordenlari bilan taqdirlangan[2].

Haqiqatdan ham adib chin ma’noda haqiqiy o‘tkir qalam sohibi edi. 2003-yil 24- may juma kuni og‘ir hastalik tufayli oilasi davrasida Toshkentda vafot etgan. O‘tkir Hoshimov butun umri davomida “...kitob yozsanki, uni o‘qigan kitobxon hamma narsani unutsa, asar qahramonlari bilan yashasa...” deb orzu qilgan edi.

Xulosa qilib aytish kerakki, O‘tkir Hoshimov taniqli o‘zbek yozuvchisi va jamoat arbobi bo‘lishga loyiq ekanini yozgan asarlari-yu asarlar orqali kitobxonlar bilan muloqoti



buning yaqqol dalilidir. Adib jismonan bu dunyoni tark etgan bo‘lishi mumkin, ammo uning yodi, boshqalarga o‘xshamas misli ko‘rinmagan iste’dodi bilan kitobxonlar qalbida o‘chmas iz qoldirgan. U har bir kitobxon qalbida hamisha barhayotdir...

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boqijon To‘xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova “ Adabiyot ” 10-sinflar uchun darslik (II qism). O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyot. Toshkent 2017. 182 bet.
2. Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo‘chqorov, SHuhrat Rizayev. “ Adabiyot ” 6-sinflar uchun darslik (I qism). Toshkent “Manaviyat” 2017. 157-bet



THE EFFECTIVE WAYS OF TEACHING ENGLISH TO YOUNG LEARNERS

Makhbuba Toshpulatova
Ferghana Regional Retraining
and In- Service Center
of Public Education Staff
EFL teacher

Annotation: the present article deals with the following subjects : what are the principles of teaching English to children , why do we teach children a foreign language , teachers social and psychological preparation , the emotional and physical aspects of young learners , the teachers main roles in class , a review of TPR , and finally some practical tips and teaching techniques for beginner teachers of English language.

Key words: the principles of teaching English to children, social and psychological preparation, physical aspects, teaching techniques

Why do we teach children a new language? Language as a means of communication plays very important role in social relationship among human beings. The English Language is one of the first foreign languages we teach to children at very early stages of schooling. The primary aim of teaching English in the early years of schooling is to motivate young learners to be ready and have self- confident in learning English at higher levels of education. It is fundamentally essential for children to learn English from a young age in this rapidly globalizing world. English knowledge will help to open many opportunities for them in the future and it will be invaluable in their future careers. However, teaching English to children is not an easy job. But it is also not difficult, if we already know how to do it. Many teaching positions involve teaching children - a unique experience that is both challenging and fun. Compared to adults, children are more energetic, have shorter attention spans, and learn language according to specific stages of development; these present planning challenges for the teacher. The key to teaching English to children is to understand the principles of language acquisition and apply it in ways that keep children motivated to learn. Children's world is playing and imitating.

Teaching of English for Children has been of particular concerns. For this reason, in teaching children English, there are some characteristics of whom presented by Scott and Lisbeth (1992). Children aged 8-10 are mature enough; They have a particular point of view; They are able to describe the difference between facts and fictions; They are curious of asking questions; They believe in what is said and the real world to express and comprehend meaning/message; They have distinct opinions about what they like and what they dislike; They are open to what happens in the classroom and begin asking a teachers decision;

Children tend to have shorter attention spans and a lot of physical energy. They are very much linked to their surroundings and are more interested in the physical and the tangible phenomena. As Scott and Ytreberg (1990, 2) describe, "Their own understanding comes through hands and eyes and ears. The physical world is dominant at all times.". Teaching English to children is different from teaching English to adults. According to Harmer (2001: 38), young learners learn differently from adult learners. They easily get bored, losing interest after a short period of time. In order to keep them engaged it is necessary to supplement the activities with lots of brightly colored visuals, toys, puppets, or objects. Using these activities, a language teacher can make the language input enjoyable and comprehensible as well. Using gestures and body language are very effective for young learners to gain understanding of language. Moreover, it is recommended that teachers keep children active and motivated, using a song, story, game, or a teacher- made activity. In James Asher's (1977) method, Total Physical Response (TPR), children listen and physically respond to a series of instructions or commands from the teacher. The more fun the activities, the better they will remember the language materials presented. Teaching English to children, should be enjoyable, interesting, repetitive, and understandable. In doing so, there should be appropriate methods and techniques for teaching English to them. When you become a teacher of children, you are no longer just a language teacher, you are also an educator. There are some helpful ideas to incorporate into the language classroom. These ideas come from the discussions and experience and researches done by teachers and professionals.



- Speak clearly and concisely
- Use the board most of the time
- Use enjoyable language learning games
- Have a sense of humor
- Let them listen to music and watch cartoons in English
- Don't forget background music when teaching or assigning them some tasks
- Use pantomime and body language when necessary
- Get your real objects to the class
- Call them by their first names or give them some new English names
- Budget your time, don't be in a rush
- Check their home works regularly but not seriously
- Give them break some times
- Be well dressed

It's not always easy, but with experience and these tips for teaching young learners, you'll discover what works for you. Then, you can effectively teach your students and help them excel.

Used literature:

1. Asher, J. James. Organizing Your Classroom for Successful Second Language Acquisition. www.tprsource.com/asher.htm. (Accessed on 20 August 2006)
2. Hashemi, Masoud . (2008) Techniques in Teaching English to Children, Oral presentation , Islamic Azad University , Toyserkan Branch , Iran
3. Kang Shin, Joan . (2006) Ten Helpful Ideas for Teaching English to Young Learners , English Teaching Forum , USA



ИНТОНАЦИЯ АТАМАСИГА ҚИСҚАЧА ШАРҲЛАР

Ёқутхон Ёрматова

Фарғона вилояти

ХТХҚТМОХМ ўқитувчиси

email:yormatovayoqut@gmail.com

Аннотация: мақола интонация ва унга берилган таърифлар масалаларига бағишланган бўлиб, мазкур тушунча борасида берилган талқинлар турли хил манбалар асосида жамланган.

Калит сўзлар: интонация, мелодика, ритм, темп, тембр, урғу, пауза, просодика

Интонация ва унга бўлган қизиқишлар йиллар давомида тилшунос олимларни қизиқтириб келаётган масалалардан бири бўлиб бу тушунчага таъриф бериш борасида ягона бир фикрнинг йўқлиги бугунги кун тилшунослиги учун долзарб масалалардан бири бўлиб қолмоқда. Қуйида биз интонацияга берилган таърифларнинг айримларига тўхталиб ўтамиз.

Ўзбек тилининг изоҳли луғати

Интонация (лот. *intonare* – баланд овозда гапирмоқ, талаффуз қилмоқ)

1. Сўзловчининг нутқ мавзуига муносабатини, ҳис-туйғусини ифодаловчи талаффуз услуги; тон.

2. тилш. Товушнинг ўзгаришидан, паст-баланд бўлиб туришидан иборат бўлган ритмик-оҳангдор нутқ тузилиши; оҳанг. Хитоб интонацияси. Сўроқ интонацияси.

3. мус. Ашулада ёки мусиқада оҳангнинг тўғри олиниши[3].

Тилшуносликдаги атамалар луғати

Интонация (лот. *intonare* – баланд овозда гапирмоқ, талаффуз қилмоқ)

Нутққа эмоционал-экаспрессив бўёқ беришга ва гапда синтактик маъно ифодалаш учун хизмат қилувчи унинг ритмик-мелодик томони. Интонациянинг таркибий қисмлари:

1) нутқ мелодикаси, гапдаги овозни кўтарилиши ва пасайишини юзага чиқаради (қиёсл. дарак билан сўроқ гаплар талаффузи)

2) нутқнинг ритми яъни қиска ва узун, урғули ва урғусиз бўғинларнинг ўрин алмашиши (қиёсл. прозаик билан поэтик нутқ)

3) нутқ интенсивлиги, яъни нафасни кучайтириш ёки кучсизлантириш билан боғланган талаффуздаги куч ёки кучсизлик (қиёсл. хона шароитидаги нутқ билан очик майдондаги нутқ)

4) нутқ темпи, нутқ оқими пайтида ва нутқий бўлинишлар ўртасидаги паузалар тезлиги ёки сокинлиги (қиёсл. секин, бир маромдаги нутқ билан тез айтишлар)

5) нутқ тембри, яъни нутққа эмоционал-экспрессив маъно берадиган, товушларнинг бўёқдорлиги (“хушчақчақ”, “ўйноқи”, “ғамгин” тембр);

6) сўз ва мантикий урғу нутқ бўлаклари ёки гапдаги алоҳида сўзни ажратиш кўрсатиш учун хизмат қилади.

Интонация гапнинг муҳим белгиси бўлиб, унинг грамматик жиҳатдан шаклланганлиги (тугалланган, тугалланмаган интонация), гап бўлаклари орасидаги синтактик муносабатларни (санок, қиёслаш, ойдинлик киритувчи интонация ва б.; чорловчи интонация, кириш сўзи интонацияси), эмоционал бўёқдорликни кўрсатувчи (ундов интонацияси) каби ифодалаш воситалари бўлиб ҳисобланади[4].

Бурцева томонидан тузилган “Словарь иностранных слов” луғатида эса интонация қуйидагича талқин қилинади:

Интонация ж.р. (лот. *intonatio*)

1. Талаффуздаги тон (овоз)нинг кўтарилиши ва пасайишига боғлиқ бўлган ритмик-мелодик жиҳатдан тартиблантирилган (тузилган) нутқ. (тилш.) Сўроқ, ундов, буйруқ интонацияси.

2. Сўзловчининг нутқ предметига бўлган муносабатини билдирувчи талаффуз тони, услуги. (китоб.) Ҳазиломус интонация, ифодали интонация.

3. Мусикий чолғу асбобини чалганда ёки қуйлаганда овоз тонининг тўғри ёки нотўғри олиниши. (мус.) Сохта, ёлғон интонация. [2]



Грамматик ва лингвистик терминлар луғатида эса интонация куйидагича таърифланади:

Кўтарилиувчи ва пасаяувчи овознинг ўрин алмашиши. Интонация – нутқнинг энг муҳим, аҳамиятга молик формал белгиларидан бири ҳисобланади. Бу борада алоҳида сўзларнинг интонацияси ва сўз бирикмалари интонациясини фарқлаш керак бўлади. Ҳозирги замон рус тилида алоҳида сўзлар ўзларининг интонациясига эга эмас. Бироқ интонация гапда катта маънога эга. Ёзувдв эса интонация жуда кўп ҳолларда (барчасида ҳам эмас) пунктуация билан ифодаланади яна ҳам аниқроғи турли хил тиниш белгилари орқали ифодаланади[1].

Энциклопедик луғатда эса интонация:

1) Нутқнинг мелодика, ритм, темп, интенсивлик, урғу (акцент) тембр ва б. просодик элементлар йиғиндиси ҳисобланади. Интонация нутқни фонетик жиҳатдан ташкил қилади ҳамда турли хил синтактик маъно ва категорияларни ифодалайди ва унга эмоционал-экспрессив бўёқ беради.

2) Поэтик нутқнинг ўзига хос хусусияти бўлган яъни шеър айтган пайтда (шеър, бир байт ва б.) унинг ўртасига келиб овознинг кўтарилиши ва унинг охирида пауза билан тушириш; баъзан синтактик интонацияга мос келадиган ёки мос келмайдиган шеър мелодикасининг мураккаб суратини ҳосил қилади.

3) Муסיқий фикрнинг товушлар билан қамраб олинган тимсолидир: энг кичик мелодик бурилиш, ифодали интервал, мусиқадаги ижро этувчи “тон”(оҳанг)дир. Б.В.Асафьевнинг таърифига кўра интонация – мусиқий таркибнинг ташувчисидир[5] .

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Дурново, Н.Н. Грамматический словарь: грамматические и лингвистические термины/ Н.Н.Дурново; сост.О.В.Никитин. – 3-е изд., стер. – Москва; ФЛИНТА, 2018. – 184 с.
2. Словарь иностранных слов; ред.Бурцева, В.В.; Семенова, Н.М.; Изд-во: М.: Русский язык – Медиа, 2009 г.; ISBN: 978-5-9576-0499-0
3. <https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/uzbek-tilining-izohli-lugati/>
4. <https://www.textologia.ru/slovari/lingvisticheskie-terminy/intonaciya/>
5. https://endic.ru/enc_big/Intonaciya-23043.html




ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КЛАСТЕРОВ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Гафуров Саминжон Собиржон угли
Магистрант II курса
УзГУМЯ, Ташкент

Аннотация. В статье дана информация о том, как можно использовать приём составления кластеров на уроках русского языка. Автор обуславливает необходимость применения метода с целью развития критического мышления, исследовательских компетенций учеников, формирования ценностно-смыслового отношения к процессу обучения. В качестве примера рассматривается применение метода кластера в обучении учеников школы.

Ключевые слова: кластеры, имя существительное, части речи, метод кластер, критическое мышление, контекстное обучение, профессиональная подготовка, исследовательская компетентность.

Ни для кого не секрет, что детям младшего школьного возраста сложнее обобщать знания по теме, пользоваться научной терминологией, систематизировать полученные знания. Для решения этой проблемы мы используем на уроках русского языка один из приёмов технологии критического мышления – кластеры. Кластер (от англ. cluster - «скопление», «пучок», «созвездие») - это способ графической организации материала, позволяющий сделать наглядными те мыслительные процессы, которые происходят при погружении в ту или иную тему, свободно и открыто думать по поводу какой-либо темы. Иногда такой способ называют «наглядным мозговым штурмом». Кластеры удобно использовать при изучении лексико-грамматических разрядов (частей речи). Задачи учителя при изучении частей речи помочь детям осознать грамматическую жизнь слова, понять, как и почему слова в русском языке изменяются, привлечь их внимание к грамматическим формам и учить правильно использовать их в речи. Для решения этих задач, мы начали использовать кластеры со второго класса. Второй класс, согласно школьной программе, включает проведение классификации слов с учетом морфологического вопроса, на который они отвечают. При изучении частей речи во втором классе получили кластер такого вида:



Третий класс является центральным в формировании понятия «часть речи». Учащиеся знакомятся с совокупностью лексико-грамматических признаков, свойственных каждой части речи: роль в языке, обобщенное лексическое значение, категория рода, числа, времени (у глаголов)- функция в предложении. В третьем классе кластеры строятся на каждую часть речи отдельно. Лист ватмана размещается на второй половине доски. Посередине этого листа записываю часть речи, которую мы начали изучать. Новое звено в кластере появляется с каждой новой изученной темой, которое становится итогом пройденного урока. Например: при изучении на уроке темы «Изменение имён существительных по числам» в конце урока дети добавляют кластеру имени существительного звено «Изменяется по числам». С каждым пройденным уроком кластер нарастает. Лист висит на доске до тех пор, пока не будет пройдена вся грамматическая тема. Затем получившийся кластер вывешивается на видное место в качестве наглядного материала. По этой же схеме составляется кластер на следующую изучаемую часть речи. Приведем пример кластера имени существительного в 3 классе:



К концу третьего класса дети без труда дают определение каждой части речи, делают морфологический разбор слова, опираясь на кластеры. В четвертом классе углубляются знания о морфолого-синтаксической стороне каждой части речи; изменение имен существительных и имен прилагательных по падежам, глаголов по лицам. Большое место занимает формирование навыков правописания окончаний. В четвертом классе к кластеру имён существительных добавили такие звенья как: «склонение» и «падежи», так как в этом учебном году более подробно изучаются данные темы.



К концу четвертого класса дети умеют выделять основные стороны формируемых грамматических понятий.

- что обозначает слово (предмет, признак предмета или действие предмета),
- на какие вопросы отвечает,
- как изменяется или какие имеет постоянные категории,
- каким членом предложения чаще всего выступает в предложении,
- какие имеет окончания; как чаще всего образуется.

Итак, использование такой формы работы, как составление кластера, помогает учащимся:

- систематизировать, обобщить, актуализировать, структурировать знания по теме;
- запоминать теоретический материал по теме;
- составлять связные высказывания в научном стиле.

Литература

1. Сластенин В.А. Педагогика: инновационная деятельность М.: «Издательство Магистр», 1997. — 456 с.
2. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии: Учебное пособие. — М.: Народное образование, — 1998. — 256 с.
3. Мухина, Т.Г. Активные и интерактивные образовательные технологии (формы проведения занятий) в высшей школе: учебное пособие /Т.Г. Мухина. — Н.Новгород: ННГАСУ, 2013.
4. Сиротюк, А.Л. Инновационный подход к обучению в профессиональной школе /А. Л. Сиротюк, М. Г. Сергеева.– Курск: изд-во РФЭИ, 2011.
5. Панина, Т. С. Современные способы активизации обучения: учебное пособие / Т. С. Панина, Л. Н. Вавилова; под ред. Т.С. Паниной. — 4-е изд., стер. — М.: Издательский центр «Академия», 2008.



ТОПИШМОҚЛАР КОГНИТИВ СТРУКТУРА СИФАТИДА

Якубова Нодирахон

Кўкон давлат педагогика институти

докторанти

email: begimoy@mail.ru,

tel: +998916766009

Аннотация: ушбу мақола топишмоқларни когнитив лингвистика объекти сифатида тадқиқ қилишга бағишланади. Унда топишмоқларнинг тарихий жанр сифатидаги мақоми, турли макон ва замонларда ривожланиш масалалари ҳам муҳокама қилинади. Тафаккурни ривожлантиришда топишмоқларнинг ўрни юқори эканлигига алоҳида эътибор берилди.

Калит сўзлар: топишмоқлар, жумбоқли матнлар, яширин маъно, коннотатив маъно, денотат.

Когнитив тилшуносликнинг асосий бирлиги сифатида концепт қаралиши ўзбек тилини когнитив сферада ўрганиш юзасидан олиб борилаётган қатор тадқиқотларнинг марказий нуқтасида ҳам концептлар туришидан далолат беради. Ўзбек тилшунослигининг янги шаклланаётган йўналишларида ҳам концепт термини тез-тез қўлланилмоқда. Ана шундай концептлардан бири сифатида дунё халқлари фольклорининг деярли барчасида учрайдиган оммавий жанр-топишмоқлар ҳақида тўхталиб ўтмоқчимиз.

Борлиқни ўзига хос ҳамда ҳеч кимникига ўхшамаган тарзда бадиий идрок этиш шакли бўлган топишмоқлар халқ донишмандлигининг кенг тарқалган кўринишларидан биридир. Инсон ва уни ўраб турган атроф-олам топишмоқларда кўчимлар, ўхшатишлар, қиёслар ва саволлар ёрдамида ўзига хос поэтик шаклда намоён бўлади. Бу жиҳати билан у инсоният бадиий тафаккури тараққиётида вужудга келган фавқулудда ҳодиса бўлиб, унда образли акс этган ҳаёт парчаси топишмоқнинг жавоби орқали реаллашади. Жанрнинг поэтик табиатига хос бўлган бундай умумий хусусият барча халқлар топишмоқларига хосдир. Демак, у – халқаро жанр. Масалан, инглиз топишмоқларига мурожаат қиладиган бўлсак, (1) *Black and white and read all over* (Оқ ва қора, барча томони ўқилади)¹ топишмоғида *black* (қора) ва *white* (оқ) сўзларидан кейин *read* (ўқимоқ) сўзи келаётган бўлса-да, бу ўринда у *red* (қизил) ранги қандай талаффуз қилинса, шундай талаффуз қилинади. Бу каби фонетик ноаниқлик (икки маънолилик) эса тингловчига мавҳум эшитилади, жумбоқнинг қийматини оширади.

Рус халқ топишмоқларини кўрадиган бўлсак, улар ҳам рус халқи ҳаёт тарзининг ифодаси сифатида ўзига хос оригинал, жозибали ва беназирдир. Масалан, *Без рук, без ног, Рубашки просит* (Подушка)² ёки *Новая посудина, Вся в дырах* (Корзина)³ каби топишмоқларда ҳам шаклий тузилиши, функционал вазифаси, иш-ҳаракати ва ҳолати жиҳатидан бир-бирига ўхшаш бўлган икки буюм, нарса ва ҳодисалар жумбоқ остига олинган бўлиб, улар ўхшаш белгилар асосида айнан ўша предметни топишга мўлжаллаб шеърый ёки насрий кўринишда берилган савол ёки топшириқлар тарзида тузилган.

М. Абдурахимов муаллифлигида тузилган “Ўзбек халқ топишмоқлари” тўпламини кўздан кечирадиган бўлсак, унда нафақат шеърый ёхуд савол кўринишидаги, балки тўлақонли матн кўринишидаги жумбоқларни ҳам учратиш мумкин. Шунингдек, ушбу тўпландан бир нечта анъанавий ва замонавий топишмоқлар ҳам жой олган. *Ишини битирди, Эшик тагига ўтирди* (Супурги)⁴ топишмоғи мазмунан уй-рўзғор мавзусидаги топишмоқлар туркумига кирса, *Пулат қушим учди-кетди, бир зум ўтмай, ойга етди* (Ракета)⁵ топишмоғида янги замон излари кўзга ташланади.

Ҳозирги замонга етиб келгунга қадар, ақл-заковат ҳамда зийраклик мусобоқаси саналган топишмоқлар мураккаб тараққиёт йўлини босиб ўтган. Инсон яралгандан буён онгли равишда ўзини қуршаб турган ташқи муҳит, атроф-оламни идрок этишга, воқеа-ҳодисаларни

¹ Archer Taylor, *English Riddles from Oral Tradition* (Berkeley and Los Angeles: University of California).

² Д. Садовников “Сборник загадок, вопросов, притч и задач”, Москва, 1995, стр. 46

³ Ўша манба

⁴ Абдурахимов М. Ўзбек халқ топишмоқлари. Тўплам. www.ziyouz.com kutubxonasi

⁵ Ўша манба



англашга, таҳлил қилишга уринади. Билиш жараёни –бу воқеиликнинг инсон онгида акс этиши ва шу асосда объектларнинг хоссалари, белги ва моҳиятини ифода этадиган тушунчалар, ғояларни ишлаб чиқариш жараёнидир. Билимлар инсоннинг кундалик билиш жараёнлари таъсирида ҳосил бўлади. Одатда турли манбалардан олинган маълумотлар асосида билимлар бойитиб, кенгайтириб борилади. Шу ўринда интеллектуал салоҳиятнинг бойиб боришида топишмоқ ва жумбоқларнинг аҳамияти беқиёс эканини эслатиш жоиздир.

Биз таҳлилга тортаётган “топишмоқ” концепти турли географик ҳудудларда турлича номлар билан аталади. Топишмачоқ, топмача, топар, топ-топ, чўпчак, жумбоқ кабилар шулар жумласидандир. Топишмоқларнинг вужудга келиши узоқ тарихга бориб тақалишини, унда муайян халқнинг менталитети, миллий маданий жиҳатлари ифодаланишини ҳисобга олсак, уни топувчи ўша халқнинг тарихий ўтмиши, турмуз тарзи ва унга боғлиқ бўлган жиҳатлар билан таниш бўлиши лозим, ҳар ҳолда ушбу бохабарлик топишмоқлар ечимини осон топишга йўл очади. Зеро, халқ фольклори менталитетни ўрганишнинг муҳим манбаи саналади.

“Топишмоқ” концептининг тарихий жанр эканлигини таъкидлаш баробарида, шуни айтиб ўтиш лозимки, ушбу атаманинг қачон ва қаерда вужудга келганлиги ҳақида аниқ маълумот йўқ. Изланишлар шуни кўрсатадики, топишмоқлар тарихи минг йиллар олдинга бориб тақалади. Япония, Хитой ва Тибет давлатларидаги қадимий ибодатхона деворларида ўйилган ёзувлар жумбоқли саволлар эканлиги аниқланган. Ҳозиргача сақланиб қолган энг қадимий инглиз топишмоқлари Месопотамиядан топилган. Шумерликлар томонидан лойтахтачада ёзилган инглиз топишмоқлари милoddан аввалги 235 йилда Лагашдан топилган.¹

Фольклоршунос олима Зубайда Хусаинованинг китобида келтирилишича, рус халқ топишмоқларини йиғиш ва илмий асосда ўрганиш ҳам XIX асрнинг 60-йилларидангина бошланган. Туркологияда ва, хусусан, ўзбек тилшунослигида ҳам XIX асрга қадар ўзбек топишмоқларининг бирорта тўплами мавжуд бўлмаган.²

Бугунги кунга келиб эса, жумбоқли матнларнинг специфик кўриниши саналаган топишмоқларнинг нафақат анъанавий, балки замонавий турлари бўйича тузилган тўплamlарни учратасиз. Топишмоқлар қандай турда бўлмасин, хоҳ шеърий, хоҳ насрий, хоҳ болалар учун мўлжалланган, хоҳ катталар жумбоғи—уларнинг барчаси муайян номни ўзида концептуаллаштирган яширин предметни ифолагани учун ҳам ақлни чархлаш, тафаккурни ўстириш воситаси бўлиб хизмат қилади. Ҳозирги замонамизда яратилаётган топишмоқлар эса тараққиётнинг энг сўнгги ютуқларини ҳам ўзида жамлаган ҳолда узлуксиз ривожланиб боради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Archer Taylor, English Riddles from Oral Tradition (Berkeley and Los Angeles: University of California).
2. Д.Садовников “Сборник загадок, вопросов, притч и задач”, Москва, 1995.
3. Абдурахимов М. Ўзбек халқ топишмоқлари. Тўплам. www.ziyouz.com kutubxonasi
4. www.innovateus.net/innopedia/history-riddles
5. З.Хусаинова, Ўзбек халқ топишмоқлари. Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1966

¹ www.innovateus.net/innopedia/history-riddles

² З.Хусаинова, Ўзбек халқ топишмоқлари. Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1966, 3-бет



NAVOIY – KO'NGIL BOG'INING BOG'BONI

Urmanbekova Lola Tairbekovna,
Toshkent shahar Yangihayot tumani
3-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Buyuk shoir va mutafakkir Navoiy barcha turkiy xalqlarning eng buyuk shoiridir. Chunki u o'zini "Xitoydan to Xuroson" gacha yoyilgan turkiy "qavm" (el, urug')larning shoiri deb bildi. Ularni bir adabiy til bayrog'i ostida birlashtirdi, "yakqalam" qildi. Bu bilan millatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy ravnaqiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Aytishlaricha, Alisher Navoiy hazratlari Samarqandda o'qib yurgan kezlarda Buxoroyi sharifni ziyorat qilishni orzu qilibdilar. Samarqandda to'xtab o'tadigan karvonlarga qo'shilib, bir guruh do'stlari bilan Buxoroga yo'l olibdilar.

Karvon yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, Karmanadan o'tib, "Malik rabot" karvonsaroyiga kelib to'xtabdi. Yo'lovchilar dam olib, tuyalar va otlarni sug'oribdilar. Meshlarni to'ldirib suv olibdilar. Karvonda ketayotgan Navoiy hazratlari yon-atrofdagi cho'l-u sahrolarni kuzatib, o'yga tolibdilar. Malik rabot va Sardobani barpo etganlar ruhiga tilovat qilibdilar.

"Qani endi, mening Farhodlarim, Shirinlarim shu bepoyon sahrolarga kelib, shu joylarni obod qilsalar, suv chiqarib, bog'-rog'lar barpo qilsalar, imoratlar, yo'llar, masjid-madrasalar, shifoxonalar barpo etsalar, sahrolar o'rnida go'zal bir yurt bunyod bo'lsa" deb orzu qilgan ekanlar Alisher Navoiy. Oradan asrlar o'tib, xudoning marhamati va bobomizning iltijolari, xalqimizning mehnati evaziga tilovat o'qilgan joylar bog'-rog'ga aylanib, shoir nomiga "Navoiy" deb atalibdi.

Mustaqil O'zbekistonda Navoiyni anglash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Respublikadagi eng yirik viloyatlardan biri va uning markazi, O'zbekiston Davlat mukofoti, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Til va adabiyot instituti, opera va balet akademik teatri, O'zbekiston Davlat kutubxonasi, Adabiyot muzeyi, Samarqand Davlat universiteti, San'at saroyi, Toshkentdagi metro bekati, o'nlab ko'chalar va boshqa yuzlab madaniy-ma'rifiy muassasalar, jamoa xo'jaliklari ulug' shoir nomi bilan ataladi. 1991-yilda Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi tantanali nishonlandi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti ta'sis etildi. Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i barpo etildi va bu bog' o'rtasida shoirning salobatli haykali qad ko'tardi.

Shoirning 20 jildli mukammal asarlar to'plami nashr etildi. Mamlakatimizda Alisher Navoiy xotirasi yuksak darajada e'zozlanadi. Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlab haykaltaroshlar, rassomlar va bastakorlar asarlar yaratishgan. Har yili Alisher Navoiy tug'ilgan kun-9-fevralda ilmiy-an'anaviy konferensiya o'tkazilib, Alisher Navoiy merosini o'rganish sohasida qilingan yillik ishlarga yakun yasaladi.

O'zbekistonga kelib Alisher Navoiy ijodini o'rgangan va uning "Lison ut-tayr" asarini ingliz tiliga tarjima qilgan kanadalik Garri Dik Navoiyga "Dunyoni ma'naviy tanazzuldan qutqara oladigan ko'ngil bog'ining bog'boni" deya ta'rif beradi.

2016-yil dekabr oyida AQSHning Gervena Barva Press nashriyotida "Twenty-one Ghazals by Alisher Navoiy" deb nomlangan va Amerikaning Massachusetts shtati Salem shahrida istiqomat qiluvchi adabiyotshunos olim Denis Deli tarjima qilgan Alisher Navoiyning yigirma bir g'azalidan iborat kitob chop etildi. To'plam amerikaliklar tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olindi. Kitob bugungi kunda xalqaro internet tizimidagi mashhur savdo kompaniyasi bo'lmish Amazon va boshqa ko'plab saytlar orqali ingliz tilli kitobxonlarga taqdim etilgan.

Alisher Navoiy vafot etganidan keyin o'tgan davr mobaynida uning asarlari forsiy va turkiy xalqlar orasida keng yoyildi. Atoqli tojik shoirlarining ko'pchiligi, Fuzuliy, Kishvari, Mirzo Fatali Oxundov, Sobir kabi ozarbayjon yozuvchilari, Ozodiy, Maxtumquli va Zelili kabi turkman shoirlari, qozoq yozuvchisi Abay Qo'nonboyev, qoraqalpoq sohibqalamlari Berdaq, Ajiniyoz, tatar shoirlari Abdulla To'qay, Hayum Nosiriy va boshqa shoirlar Alisher Navoiyga yuksak baho berib, asarlaridan ta'lim oldilar, ayrim asarlariga nazira bitdilar.

Alisher Navoiy ijodiyotiga qiziqish, uni o'rganish Yevropa va Rossiyada ham katta tarix-



ga ega. Fransuz sharqshunosi Katmer 1841-yilda bosilgan xrestomatiyasida Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" va "Tarixi muluki Ajam"ni e'lon qilgan, I.N. Berezen "Turk xrestomatiyasi" da uning bir necha asarlaridan parchalar bergan. M. Nikitskiy 1856-yilda birinchi manbalar asosida "Amir Nizomiddin Alisher. Uning davlat va adabiyot sohasidagi ahamiyati" mavzusida magistrlik dissertatsiyasini yozadi. Shu bilan birga, N.I. Ilminskiy, V.V. Velgaminov-Zernov, V.V. Bartold, Ye.E. Bertels, S.N. Ivanov, N.I. Konrad, M. Belen, Pave de Kurteyl, E. Braun va boshqa sharqshunolar Alisher Navoiyning faoliyati va merosi bilan shug'ullandilar.

Buyuk shoir Xurosonda, uning poytaxti Hirotda yashab o'tdi. Qadim zamonlardan, shu jumladan, Navoiy yashagan davrda ham Xuroson va Movarounnahr bir mamlakat bo'lib, bir taxt egasi ixtiyorida kelgan aholining asosiy qismini turkiy xalqlar tashkil etgan. Zahiriddin Muhammad Bobur Navoiy tili "Andijon shevasi bilan rost"ligini o'zining "Boburnoma" asarida yozib qoldirgan. Binobarin, biz o'zbeklar turkning eng qadim bo'g'inini tashkil etgan va bugun o'zbek millati bo'lib shakllangan xalq buyuk Navoiyning bevosita vorislaridirmiz. Navoiydek jahoniy zotga avlodlik va vorislik hissi har bir o'zbekning qalbini g'urur va iftixor tuyg'ulari bilan to'ldiradi.

Bolaligidan she'riyat dardi bilan nafas ola boshlagan Navoiy ijodi tirikligidayoq Islom o'lkalarida mashhur bo'ldi, uning ilk devoni tuzilgan kundan boshlangan qiziqish shu bugungacha davom etmoqda. Ulug' shoir ijodi mazmunan soddaligi-yu, fikran teranligi bilan maftunkor edi. Uning daftaridagi sir-u sinoatlar zamondoshlari, keyingi nasllar diqqatini nechog'li band etgan bo'lsa, ishonchim komilki, hali biz anglamagan, kalitini topolmagan sirlarni necha-necha kelajak avlodlar ochadilar. Shu ma'noda mutafakkir bobomizni bizdan yaxshiroq biladigan kelajak odamlariga hafas qilaman.



ОНА ТИЛИ ВА АДАБИЙОТ ДАРСЛАРИДА “ДЕБАТЛАР” ТЕХНОЛОГИЯСИ – ЙОЗМА ВАХСЛАР

Djumayeva Negbibi Xojiqulovna,

Navoiy viloyat Karmana tumani 18-sonli umumta’lim maktab
Ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

Pedagog, ayniqsa, yoshlar tarbiyasida zamon bilan hamnafas yuradigan, ilg’or innovatsion pedagogik g’oyalarni o’zida mujassam etadigan, o’z ustida doimiy ishlaydigan shaxsdir. O’z-o’zidan ma’lumki, shu orqali o’qituvchida pedagogik mahorat ham shakllanib, takomillashib boraveradi.

Pedagogik mahorat – izlanish, ijodiy mehnat mahsuli bo’lib, u hamma o’qituvchilar uchun bir qolipdagi ish uslubi emas, balki u har biri kishidan o’z ustida ishlashini talab etadi. U pedagogika va psixologiya bo’yicha ilmiy bilimlarni, ya’ni kasbiy bilimlar, kasbiy qobiliyat, pedagogik etika va pedagogik texnikani o’z ichiga oladigan jarayondir.

Pedagogik mahorat zamirida pedagogik kompetentlik yotadi. Pedagogik kompetentlik deganda konkret tarixiy davrda qabul qilingan me’yorlar, standartlar va talablarga muvofiq pedagogik funksiyalarni bajarishga tayyorlik va qodirlikni belgilovchi professional-shaxsiy xususiyatlar tushuniladi. Professional-pedagogik kompetentlik pedagogik voqelikni izchil idrok etish va unga izchil ta’sir ko’rsatish ko’nikmalarini o’z ichiga oladi. Professional kompetentlik o’z faoliyat sohasida erkin mo’ljall olishni nazarda tutadi.

Insonning kasbiy layoqati – muayyan ish funksiyalarini o’zlashtirish va muayyan sohada samarali faoliyat ko’rsatish uchun zarur bo’lgan qobiliyatlar, jismoniy, ruhiy va axloqiy fazilatlarining zaruriy majmuyi. Pedagogik faoliyatga loyqlikni tavsiflovchi shaxsiy fazilatlar qatoriga yoshlar bilan ishlashga moyillik, kirishimlilik (boshqa odamlar bilan til topisha olish), sipolik, kuzatuvchanlik, zehni o’tkirlik, tashkilotchilik qobiliyatlari, o’ziga o’ta talabchanlik kiradi. Bu fazilatlarining barchasini aniqlash va sinovdan o’tkazish mumkin. Pedagog o’z kasbiy bilimlari va mahoratini oshirishi uchun pedagogik faoliyatning tarkibiy tuzilishini aniq tasavvur qilishi lozim.

Ona tili va adabiyot fanidan mavzu tanlanadi. Masalan: Cho’lponning “Kecha va kunduz” romanidagi Zebining baxtsizligiga uning o’zi ham aybdormi?

Savoli baxs mavzusi sifatida tanlanadi.

Masalan: “Cho’lponning “Kecha va kunduz” romanidagi Zebining baxtsizligiga uning o’zi ham aybdormi?” savoli baxs mavzusi sifatida tanlanadi. Rahbar tinglovchilarni mavzuga munosabatiga ko’ra tinglovchilarni 2 guruhga ajratadi va ularni o’quv xonasining 2 tomoniga qator qo’yilgan stollarga o’tqizadi va har bir guruh qatnashchilari qaysi nuqtai nazarni himoya qilishlarini belgilaydi. (Masalan. 1-guruh savolga “Ha” deb javob beruvchilar, 2- guruh esa “Yo’q”). shundan so’ng, rahbar tinglovchilarni juftlaydi, har bir juftda qarama-qarshi qarashlar tarafdorlari bo’lishi kerak. Juftlar tartib raqami yoki alifbo harflari bilan belgilanadi.

O’qituvchi 1-guruh a’zolariga (keltirilgan misolda ijobiy holatni joriy qilish tarafdorlari) har biri juft sanasi (ramzi) bilan belgilangan katak qog’oz varaqlarni tarqatadi. Tinglovchilar o’quv xonasining 2 tomonida o’tirib, juftma-juft yozma muloqotni boshlaydilar. 1-guruh a’zolariga o’zlari ma’qullayotgan nuqtai nazar foydasiga bitta ochiq dalilni shakllantirish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. Ular bu dalilni qog’oz varag’iga puxta tahrir qilingan paragraf shaklida yozadilar. Bu vaqtda 2-guruh a’zolari o’zlari baxs jarayonida bayon etishlari mumkin bo’lgan nuqtai nazarlarini isbotlashlari mumkin. Yozilgan varaqlar qarshi guruhdagi sheriklarga beriladi. Ularga juft bo’yicha sheriklarining dalillariga qarshi javob topish va yozish uchun hamda o’z qarshi dalillarini bayon qilishlari uchun 8 daqiqa vaqt ajratiladi. Dalillar almashishining bunday tartibi 2-3 marta takrorlanadi, bunda har bir tinglovchi sherigining dalil-isbotiga javob qaytarishi va o’zining aks dalilini keltirishi shart. Tinglovchilarning bilimlarini aniqlash uchun 3-4 raund etarlidir. Oxirgi raundda tinglovchilarga yakuniy paragrafni yozish imkoni beriladi. Shundan so’ng, yozma ish yig’ib olinadi. Bahslarga yakun chiqarishning yaxshi shakli ikkala tomonga qaratilgan savoldir. “Qarshi tomonning eng yaxshi dalili—isbotlari qaysilar bo’ldi?”

O’qituvchi ishni yakkama- yakka yoki jufti bo’yicha baholashi mumkin.



Ona tili va adabiyot darslarida “Debatlar” tashkil qilish uchun mavzular tanlanadi.

Yozma bahslar usulidan foydalanish mobaynida quyidagi jadval ko’rinishida keltirilgan tarqatmalardan foydalanish mumkin. Mavzu yuzasidan namuna:

Bahs mavzusi: “Kecha va kunduz” asaridagi Zebining baxtsizligiga uning o’zi ham aybdormi?
Ha. Javob: Zebining baxtsizligida uning o’zini ham aybdor deb hisoblayman. Dalil keltirmoq: Zebi tom ma’noda o’zini “muhitning erki”ga berib qo’yadi. O’z baxti uchun kurashmaydi.
Yo’q. Javob: Zebining baxtsizligiga uni o’rab turgan iflos muhit aybdor. Dalil keltirmoq: Zebi misli nozik, pokiza gul. Gul esa iflos muhitda o’sa olmaydi. Xarob bo’lishi muqarrar.
Ha. Javob: U vaziyatga ta’sir ko’rsatishi, nobop hayotga qarshi isyon qilishi kerak edi. Dalil keltirmoq: Otasidan qo’rqmasligi, uni hurmat qilgan holda ta’sir qilishi kerak edi.
Yo’q. Javob: U yashagan muhitda ayollar huquqsiz, mute edi. Dalil keltirmoq: Ayollarga inson sifatida emas, buyum sifatida qaralar edi. Ularning bilim olishiga ham e’tabor berilmas edi. O’qimagan, sodda o’zbek qizi muhitga qarshi isyon ko’tara olmas edi.
Ha. Javob: Zebi aql kuchi bilan mutelikni engishi mumkin edi. Dalil keltirmoq: Mustaqil mutolaa orqali dunyoqarashini kengaytirishi, muammolarning echimini aql va jasorat bilan hal qilishi mumkin edi. U go’zal qo’shiqlar kuylaydi. Tengsiz ovoz sohibi. Demakki, u adabiyotdan xabardor. Shunday ekan, unda, albatta, mustaqil fikr bo’lishi shart.
Yo’q. Javob: Aqlli bo’lishning o’zi mutelikni engish uchun etarli emas. Yaxshi yomonni ajratish uchun tajriba kerak. Dalil keltirmoq: U o’z hovlisidan bo’lak dunyoni ko’rmagan, dunyoda Poshshoxon, Sultonxon singari me’rosiga ega bo’lish, boylik orttirish, o’ynash topib, ishrat qilishni o’ylaydigan kimsalar borligidan bexabar.
Ha. Javob: Zebi o’z hayotiga, o’z taqdiriga befarq. Dalil keltirmoq: Sibirga surgun qilingani haqidagi hukmni eshitgandan keyin ham qismatini emas, balki uyiga qanday etib olishini o’ylashi bunga dalildir.
Yo’q. Javob: Zebining soddaligi uning o’z hayotiga befarqligi emas. Dalil keltirmoq: Mingboshiga turmushga chiqqandan keyin ancha vaqtgacha hushidan ketib qolaverishi uning taqdir zarbasiga kichkina bir isyonidir

Bu uslubdan foydalanishda o’qituvchi o’quvchilarni baholash uchun asos xizmatini o’tovchi ajoyib materialga ega bo’ladi. Yozma bahslar uslubiyoti bunday muloqotlarni o’quv xonasidagi barcha o’quvchilar ishtirokida yozma shaklda o’tkazish imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, ta’lim mazmunining o’zgarishi, ta’limda pedagogik texnologiyalarning



joriy etilishi, zamonaviy o'qitish metodlari talablarining o'zgarishlari dolzarb masala bo'lib har bir o'qituvchiga katta mas'uliyat yuklaydi. Davr talabi darajasida dars o'tish bevosita pedagogik texnologiya, ona tili va adabiyot o'qitishning nazariy va metodik asoslari bilan bog'liq. Shularni nazarda tutib yangi pedagogik texnologiyalar va ularni amaliyotda qo'llash yuzasidan materiallar berildi. Ushbu materiallar ona tili va adabiyot o'qituvchilarining ish faoliyatlarida ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda yordam beradi deb umid qilamiz.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 26-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(7-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.03.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000